

LOTIN TILISIZ TIBBIYOTGA YO'L YO'Q

Olimboeva Donaxon Abduvalievna

ALFRAGANUS university Tibbiyot fakulteti “Farmatsevtika va kimyo” kafedrasi
assistanti

Annotatsiya: Tibbiyot oliv ta'lismuassasalarida lotin tilini o'qitish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Maqola o'lik til maqomiga ega bo'lgan, ammo zamonaviy tibbiyot fani va amaliyoti, shuningdek, bir qator boshqa ilmiy sohalar uchun dolzarb bo'lib kelayotgan lotin tiliga bag'ishlangan. Maqolada lotin tili fanining tibbiyot kasbidagi ahamiyatini asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Tibbiyot, termin, kasallik, lotin-yunon, terminologiya, atamashunoslik.

Аннотация: Особое значение приобретают вопросы преподавания латыни в высших медицинских учебных заведениях. Статья посвящена латинскому языку, имеющему статус мертвого языка, но приобретающему актуальность для современной медицинской науки и практики, а также для ряда других научных областей. В статье обосновано значение латинского языка в медицинской профессии.

Ключевые слова: медицина, термин, болезнь, латинско-греческий язык, терминология.

Abstract: Issues of teaching Latin in higher medical educational institutions are of particular importance. The article is devoted to the Latin language, which has the status of a dead language, but is becoming relevant for modern medical science and practice, as well as for a number of other scientific fields. The importance of the Latin language in the medical profession is justified in the article.

Key words: Medicine, term, disease, Latin-Greek, terminology, terminology.

Kirish: Zamonlar osha tibbiyotni jadal rivojlanishi uchun lotin tili fani asosiy fundamental fan bo'lib hisoblanib kelingan, shuningdek lotin tili butunjahon tibbiyot hodimlarining bir birlari bilan muloqot me'zoni hamdir. Har qanday kasbni to'liq egallahash uchun inson o'z mutaxassisligiga oid terminologiyani puxta o'rganmog'i lozim.

Invia est in medicina via sine lingua Latina

Lotin tilisiz tibbiyotga yo'l yo'q

Mavzuning dolzarbliji: Darxaqiqat, tibbiyot va farmatsevtika sohasidagi mutaxassislar xech bir e'tirozsiz lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'zlashtirmog'i zarur bo'lib, bu ularning mehnat faoliyatida - bo'lim nomlarini, soha nomlarini, kasalliklarning nomlarini, anatomik va klinik atamalarni, dori nomlarini yozilishida va talaffuz etishlarida o'z aksini topadi.

Tibbiyot oliv ta'lismuassasalarining birinchi bosqichlardan boshlab talabalar lotin tilini o'rganishni boshlaydilar. Ular ko'p so'zlarini, iboralarni va atamalarni eslab qolishlari kerak. Talabalarga lotin tibbiyot terminlarini o'rgatish ijobiy natijalar beradi, o'quv jarayonini optimallashtirishga, talabaning mustaqil ishini rivojlantirishga, o'z kasbiy tilini biladigan malakali tibbiyot xodimini tayyorlashga asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, lotin tili xalqaro tibbiyot tilidir. Ushbu fan o'qituvchisining vazifasi lotin tilidagi atamalarning o'zbek tiliga adekvat tarjimasini ta'minlash, atama bilan ifodalangan tushunchalarni to'g'ri talqin qilish, talabalarga tibbiy atamalarni to'g'ri yozish va talaffuz qilishni o'rganishga yordam berishdan iborat. [4.2,4]. Tibbiyot oliv o'quv yurtlarida lotin tilini o'rganish nafaqat sof kasbiy maqsad – malakali tibbiyot xodimini tayyorlash, balki talabaning madaniy-ma'rifiy saviyasini oshirish, dunyoqarashini kengaytirishni ham o'z ichiga oladi.

Qadimgi yunon va lotin tillari o'lik deb hisoblansa ham, ularning so'zlarining ma'nosi hech qachon o'zgarmaydi: Agar lotincha "lingua" so'zi "til" ma'nosini anglatса, hozir ham, bundan

1000 yil oldin va yana 1000 yildan keyin ham "til" ma'nosini anglatadi. Ilmiy lotin terminologiyasining saqlanib qolinishi, lotin tilini faqat eng qadimgi madaniyatlardan birining tili sifatida emas, balki amaliy ishda zarur bo'lgan holda o'rganishga alohida ahamiyat kasb etishi uchun ham zarurdir. Shuning uchun, lotin va yunon tillari odatda "o'lilik" deb atalsa ham, tibbiyot xodimlari uchun bu kundalik ish uchun zarur bo'lgan tirik til hisoblanadi.[1,2,5]

Zamonaviy tibbiyot terminologiyasi eng murakkab terminologik tizimlardan biridir. Tibbiy atamalarning umumiy soni noma'lum - mutaxassislarining fikriga ko'ra, zamonaviy tibbiyotning terminologik fondi 500 ming tibbiy atamalardan oshadi. Agar yuz yil oldin tibbiyot xodimi zamonaviy terminologiyani yaxshi bilgan bo'lsa, hozirda bir necha yuz ming tibbiy atamalarni o'zlashtirish deyarli mumkin emas va hech kim ularni oddiyagina yodlay olmaydi, shuning uchun ham boshqa tillarda bo'lgani kabi lotin tilida ham ma'lum elementlardan atamalarni so'z yasash qoidalarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Agar siz ushbu qoidalarni o'zlashtirsangiz, hatto yangi atamalarni tushunishni o'rganishingiz mumkin.

Lotin tili tibbiyot terminologiyasi uch sohada farqlanadi:

1) *Anatomik terminologiya.* Bu tibbiy ta'limganing ajralmas qismidir, chunki barcha anatomik atamalar lotin tilida o'rganiladi [2].

caput - bosh, collum - bo'yin, cavitas - bo'shliq, occiput - ensa, truncus - gavda, facies - yuza, caecus - ko'r, cerebrum - bosh miya, scapula - kurak, musculus - muskul, skeleton - skelet, cartilago - tog'ay, biceps - ikki boshli, cella (cellula) - hujayra, corpus - tana, intestinum - ichak, bucca - lunj, va boshqalar (3. 13-14 b).

2) *Klinik terminologiya.* Bu klinik amaliyotda qo'llaniladigan terminologiya. Ko'pgina klinik atamalar hosilaviy elementlardan tuzilgan murakkab so'zlardir. Klinik terminologiyani assimilyatsiya qilishda asosiy rolni yunon-lotincha atama hosil qiluvchi elementlar - termin elementlari egallaydi. Klinik terminologiyaning o'zagi 150 atama elementidan iborat bo'lib, ulardan tibbiy lug'atning asosiy qismi klinik terminlardan tashkil topadi [3].

"helminthosis" - gelmentlar

"gangraena" - tirik to'qimaning o'lishi

"trauma"- shikastlanish

3) *Farmatsevtika terminologiyasi.* Tibbiyot muassasalarida dorixona bilimlarning butun majmuasidir. Dori vositalari, ularning ishlab chiqilishi, dorilarga retsept yozish va ularni qo'llanilishi to'g'risidagi bilimlarni o'z ichiga oladi.

Lotin farmatsevtika terminologiyasiga misollar:

"ampulla" – ampula

"sirupus" – sirop

"unguentum" - malham

Lotin tili fani butun dunyo bo'ylab tibbiyot mutaxassislari tomonidan o'rganiladi va qo'llaniladi. Shuning uchun tibbiyot sohasida ishlayotgan har qanday mutaxassis ta'lim tamoyillariga ega bo'lishi va lotin tibbiyot terminologiyasini tushunishi kerakligi mutlaqo aniq.

Shunday qilib, o'z kasbiy faoliyatining tabiatiga ko'ra, har qanday darajadagi tibbiyot xodimi lotin tilini o'z kasbiy faoliyati amaliyotida qo'llash uchun kasbga ega bo'lish bosqichida ham, o'zlashtirishi kerak. O'z mutaxassisligi bo'yicha kelajakdagi ish jarayonida lotin tilisiz tibbiyotga yo'l yo'q.

Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida lotin tilini o'rganish sof kasbiy maqsad – o'qishning keyingi bosqichlarida terminologik savodli tibbiyot xodimini tayyorlash, shuningdek, talabaning madaniy-ma'rifiy savyasini oshirish va dunyoqarashini kengaytirish imkonini beradi.[6,7,8]

Insonlar o'z hayotlarini shifokorlarga ishonib topshirishar ekan, ular bor bilim va ko'nikmalaridan foydalanib bemorlarga yordam bera olishlari kerak.

Buni albatta, har bir bo‘lajak kasb egasiga singdirilishi lozim. Mutaxassislik fanlarini chuqur egallashlari bilan birga lotin tili tibbiy terminlardan o‘z o‘rnida foydalanishlari kasbga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi va ularni ruhan tayyorlashga ham yordam beradi:

Ko‘rinib turibdiki, tibbiyot sohasining yo‘lishlaridan qat’iy nazar lotin tilisiz tibbiyotga yo’l yo’q.

Xulosa qilib aytganda, barcha tibbiyot hodimlari lotin tibbiy terminologiyasini to’liq o’zlashtirishlari va fanga oid kompetensiyalarni talabalar ongiga singdirish orqali kuchli bilimga ega bo‘lgan tibbiyot hodimlarini shakllantirishimiz mumkin. Shuning bilan ularni kasbga tayyorlashda unumli hissa qo‘sghan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

- 1.Чернявский М.Н. Латинский язык и основы медицинской терминологии. Учебник. Москва. 2007 г.
2. Rustamova S.Sh., Saydullaeva M.A., Abdullaeva R.M. Lotin tili va tibbiy terminologiya. Darslik. Toshkent. 2017yil.
- 3.Tananushko K.A. Uchebnik latinskogo yazika. Lingua Latina. –Minsk: Xarvest, 2007.
4. Xo‘jaeva L.U. Lotin tili. – Toshkent: O‘ME Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘ME Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008. 1-5 jildlar.
6. Болтаева, К. Ш., Абдураззакова, Х. М., & Дусмуратова, Ф. М. (2017). ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ-ЗАЛОГ УСПЕХА В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ. *Бюллетень Северного государственного медицинского университета*, 1(1), 69-71.
7. Samadov, B. S., Jalilova, F. S., & Jalilov, F. S. (2022). Analysis of the components of the collection of medicinal plant raw materials of indian pomegranate. *Редакційна колегія*, 43.
8. Samadov, B. S., Jalilova, F. S., & Jalilov, F. S. (2022). Composition and technology of collection of Momordica Charantia L obtained from medicinal plant raw materials. *Scientific progress*, 3(8), 42-48.